

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI

Valiyeva Shaxlo Akmalovna

Namangan Davlat Universiteti

Fakultetlararo chet tillar kafedrası o‘qituvchisi

2-bosqich doktorant

shahlovaliyeva13@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mediakompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Medialarning ta’siri, ularning o‘quvchilarga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek, pedagogik jarayonda mediata’lim vositalaridan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda sifatli tahlil, kuzatuv va savolnoma asosida o‘quvchilarning media savodxonlik darajasi baholandi. Olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: mediakompetentlik, boshlang‘ich sinf, media savodxonlik, axborot, tahlil, raqamli ta’lim.

Аннотация : В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы развития медиакompetentности учащихся начальных классов. Анализируется влияние медиа, их положительные и отрицательные стороны, а также эффективные методы использования медиаресурсов в педагогическом процессе. На основе анкетирования и наблюдений определён уровень медиаграмотности школьников и предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: медиакompetentность, начальная школа, медиаграмотность, информация, анализ, цифровое образование.

Abstract This article explores the scientific and theoretical foundations of developing media competence among primary school students. It analyzes the influence of media, both positive and negative aspects, and effective strategies for incorporating media tools into the educational process. Based on qualitative analysis, observations, and surveys, students’ media literacy levels were assessed, and practical recommendations were developed.

Keywords: media competence, primary school, media literacy, information, analysis, digital education.

KIRISH

Ta’lim sohasini yanada yuqori darajada rivojlantirish uchun xalqaro miqyosda boshqa chet davlatlarning ta’limi tarixi va nazariyasini ham o‘rganish zarur. Xususan mediat’alimni yanada yuqori samaraga olib chiqish uchun ushbu sohadagi dunyo reytingida yuqori o‘rinlarni egallab kelayotgan ilg‘or mamlakatlarning albatta shu sohadagi tajribalarini tahlil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bugungi kunga kelib media ta’lim deyarli barcha mamlakatlarning o‘z milliy o‘quv dasturlariga kiritilgan va u endilikda boshqa mamlakatlar o‘quv dasturlariga ham kiritilishi ustida

munozaralar olib borilmoqda. Hozirgi globallashuv davrida axborot oqimi keskin ortib bormoqda. Axborotning har tomonlama mavjudligi va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi natijasida bolalar, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilari mediamuhit bilan bevosita aloqada bo'lib bormoqda. Shu bois, maktabgacha va maktab ta'lim bosqichidayoq o'quvchilarning mediakompetentligini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi⁴⁷.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Internet va mobil telefoni kabi axborot uzatuvchi vositalardan olinayotgan turli axborotlarni to'g'ri qabul qila olishga o'rgatish vazifasi yuklatilmoqda. O'quvchilar ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari qanday axborotlarning sifati va ishonchliligini baholay olishlari, axborotlardan to'g'ri foydalana bilishlari, tanlay olishlari va har bir ma'lumotga tanqidiy yondashishni o'rganishlari zarur. Shu bilan birga, Internet, televideniye, kino, radio, video, mobil telefoni, turli ma'lumotlar aks etgan slayd va suratlar kabi aloqa va ma'lumot uzatuvchi vositalarning jadal rivojlanib borishi hayotimizni sifat jihatdan o'zgartirib, ko'plab yangi muammolarni, masalan, axborot madaniyatini shakllantirish hamda o'sib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini yuzaga keltirmoqda. Mazkur jarayonda Mediata'lim o'quvchini mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatib, yoshlarning dunyoqarashi, intellektual salohiyatining rivojlanishiga va kamol topishiga zamin yaratadi⁴⁸. Eng rivojlangan mamlakatlardan biri AQSH ta'lim tizimiga nazar solar ekanmiz, juda ko'p hollarda pincha "media savodxonlik" (*media literacy*) atamasiga duch kelishimiz mumkin. Bu atamani Oksford ensiklopediyasidagi quyidagicha izohini uchratishingiz mumkin: media savodxonlik – har bir insonning mavjud mediamatnlarni idrok etishi, uni yaratishi, tahlil eta olishi va bohlay olishi, har bir mazonaviy mediani anglash qobiliyatini shakllantirish jarayonidir deya izoh berilmoqda.⁴⁹ Shuningdek media ta'lim va media savodxonlik bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ba'zan ayrim pedagoglar bu atamalarni sinonim deb fikr bermoqdalar, umumiy olib qaralganda esa, media savodxonlik – bu jamiyatdagi mavjud media ta'lim natijasida kishilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni bildiradi.

Eng ilg'or britaniyalik mediapedagoglarning ta'kidlar ekan bugungi kunning zamonaviy raqamli texnologiyalarning kengayib borishi bevosita kinoga san'atiga, videoga, televideniye dasturlariga o'zining tanqidiy munosabatini ko'rsata olish fikri insonlarning umumiy savodxonlikning ajralmas qismiga aylanib ulgurganligiga ishonch bildiradilar va shuning uchun ular mediama'lumotlarni yaratish va ulardan qay tarzda foydalanish ko'nikmalarining juda muhimligini

⁴⁷<http://fayllar.org>

⁴⁸ Sh.Valiyeva "The purpose of media competence in elementary grades in language teaching." Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi 2024-121p

⁴⁹ Новикова А.А. Медиаобразование в США и теория «диалога культур» в контексте современного гуманитарного обучения // Гуманитарная культура специалиста / Ред. М.А. Молчанова, В.Г. Кабарухин, Е.П. Александров. – Таганрог: Изд-во ТИУиЭ, 2001. – С. 176-181.

qayta -qayta ta'kidlamoqdalar.”⁵⁰ [6, 4]. Shuning uchun, britaniyalik faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarga o'zlarining maktab o'quvchilarining mediata'lim berish usullarini yanada osonlashtiruvchi bir nechta pedagogik metodikalar taklif etdilar.⁵¹

Finlandiya ta'lim tizimi o'zining mukammaligi bilan ajralib turadi. Mediata'lim sohasida 1970-yildayoq S. Minkinen va K. Nordenstrenglar tomonidan media ta'limi dasturini ishlab chiqilgan bo'lib, bu dasturda media tarixining qanday rivojlanishi, ommaviy aloqaning tuzilishi va tili, shu bilan birga, media matnlarning ta'sir etish doirasi va uni qanday qabul qilinishiga oid muammolarga doir bo'limlar kiritilib tayyorlangan edi. Biroz oradan vaqt o'tgach esa S. Minkinen UNESCO tomonidan berilgan topshiriqqa binoan media ta'limining unga hos bo'lgan barcha bosqichlari bo'yicha yana bir nechta tavsiyalar ishlab chiqdi. Avval ishlab chiqilgan dasturda media ta'limining eng asosiy maqsadlari sifatida quyidagi: kognitiv, etik, falsafiy va estetika yo'nalishlari belgilangan edi.

Finlandiyada media ta'limi 1970-yillarning boshlaridan ilk bor boshlanib, boshlang'ich maktablarda va 1977-yildan boshlab asta o'rta maktablarda integratsiya qilingan. 1990-yillarga kelib esa media ta'limi endi rasmiy ravishda mamlakatning milliy o'quv dasturiga kiritildi. Bunga ko'ra media ta'limining eng asosiy maqsadlari quyidagilarni o'zida mujassam etadi, ya'ni turli xil tur va janrlardagi mediamatnlarni tahlil qila olish va ularni yarata olish ko'nikmalarini eng yuqori darajada rivojlantirish, mustaqil ravishda tanqidiy fikrlashni o'quvchilarda shakllantirish va bugungi zamonaviy axborot dunyosida ularning hayot kechirishida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarga qarshi kuchli bilim va ko'nikmalar bilan himoyalashdan iborat.

MUHOKAMA

Boshlang'ich sinfda media vositalar o'quvchilarning e'tiborini tortuvchi, ammo ularga to'g'ri yo'l-yo'riq berilmasa, noto'g'ri tushunchalar shakllanishi mumkin. Shu bois, darslarda quyidagilarni joriy etish maqsadga muvofiq: Mediamatnlarni tahlil qilishga o'rgatuvchi topshiriqlar; Ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni tanqidiy baholash; Vizual va audio materiallarni tahlil qilish mashg'ulotlari. Bundan tashqari bu davrdagi o'quvchilarda qanday psixologik jarayonlar kuzatiladi buni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. 3-4-sinf boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologiyasi yosh xususiyatlariga ko'ra quyidagi jihatlarga ega: Intellektual rivojlanish bunda tasavvur va tafakkur- o'quvchilar hali fikrlash bosqichida bo'lib, mantiqiy fikrlash rivojlana boshlaydi va sabab-oqibatni tushunishadi, lekin mavhum tushunchalarni tushunish qiyin bo'lishi mumkin. Bu davrdagi o'quvchilarda diqqat butunlay barqaror bo'ladi, lekin hali ham uzoq vaqt davomida bir narsaga diqqatni jamlashda qiynalishadi.

⁵⁰ Донец (Каруна) И.А. Социальная ситуация в Великобритании и медиаобразование//Человек и общество: на рубеже тысячелетий. Международный сборник научных трудов. Выпуск 11/Науч. ред. О.И.Кириков – Воронеж: Изд-во Воронеж. гос. пед. ун-та, 2002. – С. 243 – 248.

⁵¹ Донец (Каруна) И.А. Сравнение российских и британских подходов к медиаобразованию на современном этапе//Проблемы образования студентов гуманитарных вузов в свете развития современных информационных технологий. – Таганрог: Изд-во Таганрог. гос. пед. ин-та, 2001. – 63-64.

Xotira esa asosan ko‘rish va eshitish orqali qabul qilingan ma’lumotlar yaxshiroq yodda qoladi. Bu davrda ular mustaqillikka intiladilar, bolalar kattalarga qaram bo‘lishdan chiqib, o‘z fikrini bildirishni xohlashadi. Raqobat va hamkorlik borasida esa do‘stlari bilan raqobat qilish, guruhda ishlashga bo‘lgan qiziqish kuchayadi. Ularning o‘ziga ulg‘ayishida o‘qituvchiga va ota-onaga bog‘liqlikni doim inobatga olish lozim ularning fikri bolalar uchun juda muhim bo‘lib qoladi, shu sababli maqto‘v va qo‘llab-quvvatlash motivatsiyani oshiradi. Ustoz va ota-onaning aytganlariga ko‘proq rioya qiladilar, lekin ba‘zan mustaqil bo‘lish istagi tufayli qoidalarga qarshi chiqishlari ham mumkin. Do‘stlarining fikri juda muhim bo‘lib qoladi, bu esa ijtimoiy ta’sirga juda ochiq bo‘lishlariga sabab bo‘ladi.

NATIJA

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan O‘zbekistonda ham endilikda mediakompetentlikni oshirishga qaratilgan bir necha loyihalar amalga oshirilmoqda, ayniqsa ulardan eng avvalo o‘qituvchilarning pedagog kadrlarning mediakompetentligini oshirish eng ustuvor masala etib qaralmoqda va bu ishlarni tizimli tashkil etilmoqda. Bir nechta olib borilgan kuzatuvlar natijasiga ko‘ra 78% o‘quvchilar televizor ko‘rish, YouTube tomosha qilish, o‘yin o‘ynash orqali media vositalaridan foydalanadi; 62% o‘quvchilar esa axborotni tanqidiy tahlil qilishda qiynaladi; 84% o‘quvchi media axborotning to‘g‘riligini tekshirish ko‘nikmasiga ega emas⁵². Bu holat boshlang‘ich bosqichdanoq media savodxonlikni rivojlantirish zarurligini va bu kabi jarayonlarga befarq bo‘lmaslikni dolzarb masala sifatida e’tirof etilmoqda. Ma’lumki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim jarayonining eng muhim bosqichida turibdi va o‘ziga yarasha katta mehnat talab qiladi. Ularning o‘ziga xos psixologik va pedagogik xususiyatlarini inobatga olish, ta’lim samaradorligini oshirishda esa eng asosiy yetakchi rol o‘ynaydi. Bu davrdagi o‘quvchilar ayniqsa hali aqliy va hissiy rivojlanishning boshlang‘ich bosqichlarida bo‘lib, qolaversa ular o‘zlarining betakror va murakkab dunyoqarashi, turlicha qiziqishlari va hissiyotlarini anglashga harakat qilish bosqichida bo‘ladilar.

Eng avvalo boshlang‘ich sinf o‘quvchilar ta’lim jarayonida qator ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirib olsalarda, lekin ular avvalgi o‘tgan darslarda o‘zlashtirilgan turli belgilarni qorishtirib, aralastirib yuboradilar. Bundan tashqari ular ilmiy tushunchalar bilan turmushda iste’mol qilinadigan noilmiy (mahalliy) tushunchalarning o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqni to‘la ajratib ololmaydilar va natijada ularda turlicha qarashlar paydo bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda ayniqsa o‘qituvchining pedagogic mahorati yordamida o‘quvchilarga eng zamonaviy va yetarli darajada tushuntirib berish uchun dars mavzusiga oid turli xil multemidiya, animatsiya, va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo‘lishigava o‘quvchilarndagi qiziqishni yanada ortishiga ko‘mak beradi. Har bir o‘quv mashg‘ulotlariga alohida tayyorlanish, o‘qituvchi darsni zamonaviy tashkil etisha olishi, buning natijasida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, atrofidagi turli axborotlarni to‘g‘ri va asosli qidirib ularni mustaqil tahlil qilishi o‘quvchilarni

⁵² Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - T.: Extremum-press, 2017.-20 (98)

muammoli vaziyatlardan hech bir qiyinchiliklarsiz chiqishga eng asosiysi esa ularda xulosa qilishni o'rgatadi. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jarayonlarida samarali foydalanish o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga, ularda turli axborotlarni saralashida eng asosiy o'rin tutuvchi mediakompetentligini oshirishga katta ta'sir etadi⁵³.

XULOSA

Eng avvalo o'quvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishda o'qituvchining roli juda beqiyosdir. Har bir pedagog o'zing dars jarayonlarida media vositalaridan maqsadli va pedagogik jihatdan to'g'ri foydalanish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mustaqil tanqidiy tahlil qilish va mavjud axborotni holis baholash ko'nikmalari shakllanadi. Media ta'lim – bu ommaviy axborot vositalari orqali o'quvchilardagi shaxsiy rivojlanish jarayonidan biridir. Mediakompetentlikni oshirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrofida sodir bo'layotgan turli noto'g'ri axborotlarga aldanib qolmaslik, turli maqsadlardagi bemani o'yinlar va qolaversa shu kabi saytlardan ularni saqlashga yordam beradi. Avvalo har bir fanga mediakompetentlikni integratsiya qilish orqali biz bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini himoya qila olishimiz mumkin deb o'ylayman.

REFERENCES

1. Toliboboeva, S. (2020). teaching intercultural communication in english. *scienceandeducation*, 1(specialissue 2).
2. Yuldasheva, N. N. (2020). хорижий тилларни ўқитишда ахборот технологиялар ва инновацион методларнинг ўрни. *молодой ученый*, (12), 332-333.
3. Ashirbaeva, A. (2020). positive traits of teaching language through literature. *scienceandeducation*, 1(specialissue 2).
4. Umirova, Z. (2020). importance of learning foreign languages. *international scientific conference of students and young scientists "farabi alemi"*.
5. Irgasheva, N. D. (2022). ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish. *eurasian journal of academic research*, 2(1), 21–24. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/58>
6. Stevenson, N. (1995). understanding media cultures. thousand oaks, ca: sage publications, inc. 238 p.
7. Teasley, A.B. (1999). developing media literacy trough film genre study. *telemidium*. vol. 45. n 2. p. 10-11.
8. Thoman, E. (1995). operational definition of media literacy. los angeles, ca.: center for media literacy.
9. Tyner, K. (1995) shooting back: video and authentic education paper presented at the fourth pedagoxia da imaxeconference, lacoruna, spain.

⁵³ Abrorxonova Kamolaxon “ Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mediamadaniyatini shakllantirishning psixologik imkoniyatlari “oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences (e)issn:2181-1784 www.oriens.uz sjif 2023 = 6.131 / asi factor = 1.7